

NAVOIY DAVRI XATTOTLIK MAKTABI AN'ANALARI VA UNING DAVOMCHILARI

Ermatov Usmonjon Komilovich

*UzDJTU Tarjimonlik fakulteti Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası
katta o'qituvchisi
uzdil59358@gmail.com*

Annotatsiya. *Tafakkur taraqqiyotini xat va xattotlarsiz tasavvur qilish qiyin. Xattotlar xat singari nimalarni unutilishi yoki butunlay yo'qolib ketishidan saqlanib qolishiga sababchi bo'lganlar. Shu sababli tarixda yashab o'tgan barcha sharq allomalari xattotlar va xattotlik san'atiga katta e'tibor berganlar. Shu jumladan, Alisher Navoiyga teng keladigan qalam ustalari juda kam uchraydi, desa mubolag'a bo'lmaydi.*

Kalit so'zlar: *Xattotlik, nasx, kufiy, riko, XV asr, Xafiiy (ingichka)*

Аннотация. *Трудно представить развитие мысли без письма и каллиграфии. Каллиграфы, как и буквы, являются причиной того, что вещи спасаются от забвения или полной утраты. По этой причине все жившие в истории востоковеды уделяли большое внимание каллиграфам и искусству каллиграфии. В том числе, не будет преувеличением сказать, что мастеров карандаша, равных Алишеру Навои, очень мало.*

Ключевые слова: *Каллиграфия, копия, Куфи, Рико, XV век, Хафий (тонкий).*

Abstarct. *It is difficult to imagine the development of thought without letters and calligraphy. Calligraphers, like letters, are the reason why things are saved from being forgotten or completely lost. For this reason, all the oriental scholars who lived in history paid great attention to calligraphers and the art of calligraphy. Including, it is no exaggeration to say that there are very few pencil masters equal to Alisher Navoi.*

Key words: *Calligraphy, copy, Kufi, Rico, XV century, Khafii (thin)*

Manbalarda yozilishicha, dastlabki xatlar orqali so'zlarni yozgan xattot Idris alayhis-salomdir. U oyning 20 burjida bittadan belgi, ya'ni harf qo'ydi. Harflar uchun shakllar ixtiro qiladi. Bu shakl bir-biriga bog'lanmagan, go'zallik kasb etmagan shaklda bo'lgan. Uzoq davrlar o'tib, Ko'fa olimlari "Ko'fiy" xatini ixtiro qilishadi. To Hazrati Ali davrigacha harflar alohida-alohida shaklda yoziladi. Hazrati Ali harflarni bir-biriga bog'lab yozish uslubini ixtiro qildilar. Abbosiylar davrida ibn Muqla shoir, olim, musiqashunos nasx xatini ixtirochisi. Natijada kufiy xati go'zal ko'rinish hosil qildi va ushbu xatga "Nasx" deb nom qo'yishdilar, zero

oldingi xatni Nasx bekor qilgan edi. U xat to Mir Ali Tabroziy "Ta'liq" xatini ixtiro qilib, uni nasx xati bilan qo'shib "Nastaliq" nomi bilan yanada go'zal xat ixtiro qilingan. Kitobatda الخط الأسرع nomi bilan arablarda الخط الرقعة paydo bo'ladi. Bu xat arab olamida tezda muomalaga kiradi. Ibn Muqla (10 asr) dan Ibn Bavvob va undan bizgacha "Qasiyda'iy roiya" asari yetib kelgan. Bu asari قصيدة رائية من البواب nomi bilan mashhur. Ibn Bavvobga أرضه في أرضه laqabi berilgan ekan. O'sha davr mashhur olimi, tarixchi ibn Zahabiy ملك الكتابة deb zikr etadi. Ibn Bavvobning asari Misrda qayta-qayta nashr qilingan. Bu asarda xat turning 36 shakli va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot bergan. Arab xati haqida eng qadimiy qo'l yozma ibn Bavvobning "Qasidai roiya" asari hisoblanadi. U Bag'dodlik bo'lgan. Uning shogirdi asli Jazoirlik Yoqut Jamoliddin ياقوت جمال الدين. U Bag'dodda ta'lim-tarbiya topadi, Mo'sta'sim Xalifa (Abbosiy Xalifalar) davrida yashagan. Mo'sta'zim Abbosiy uni e'tiqodiy tomonidan shubha ostiga olib, zindonga tashlaydi, xattot zindonda 400 nusxada Qur'onni ko'chiradi. 697 hijriy sanada mo'g'ullar tomonidan qatl etiladi. Mo'g'ullar istilosidan keyin ilm-fan singari xattotlikda ham turg'unlik davri 200 yil davom etib, to Temuriylar davriga kelib yana rivoj topa boshlaydi.

Insoniyat tarixi singari tafakkur taraqqiyotini ham xat va xattotlarsiz tasavvur etish qiyin. Xat nimalarni unutilishi yoki butunlay yo'qolib ketishlardan saqlagan bo'lsa, shularning asosiy qismiga xattotlar sabab bo'lgan. Shuning uchun o'tmishda yashab, ijod qilgan sharqlik buyuk ijodkorlarning deyarli hammasi xattotlar va xattotlik san'atiga alohida e'tibor bilan qaragan. Bu jihatdan Alisher Navoiyga teng keladigan qalam sohiblari juda kam uchraydi, desa xato bo'lmaydi. Navoiyning xattotlarga ko'rsatgan himmati, rahnamoligi xattotlik san'atini rivojlantirishdagi himmatlari o'rganilgan bilan tugamaydigan qiziqarli bir mavzudir. Shuning uchun "Navoiy qomusi" dan ushbu mavzudagi maqolalarning o'rin olishini izohlashga hech hojat yo'q deb o'ylaymiz. To'g'ri Navoiy davri xattotlari haqida qisman salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Abduqodir Murodov, Muhammadjon Hakimov va boshqalarni xotirlab o'tishimiz mumkin.

Umuman olganda, Navoiy yashagan zamonda xattotlik sohasi misli ko'rinmas darajada rivojlangan. Bu esa ustozimiz A. Hayitmetov ta'kidlaganidek, Navoiyning homiyligi 1469-yildan u davlat arbobi martabasiga erishib, kotiblarga moddiy yordam bergach boshlangan edi. Navoiyning shu kabi xizmatlari haqida zamondosh tarixchilar, xususan, Muhammad ibn Xovandshox Mirxon (903 h.y. vaf), Xondamir, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida ta'kidlab o'tilgan. VIII asrdan XV asrgacha bir nechta xat turlari, shu jumladan, ko'fiy, suls, nasx, muxaqqaq, rayhoniyy, tavqi', riqo va taliq, ayniqsa nasx va nasta'liq xatlari keng tarqalgan edi. Masalan kufiy xati binolardagi katibalarda, suls va rayhoniyy xati yozishmalarda foydalanilgan bo'lsa, riqo' va tavqi' xati devonxona ishlarida qo'llanilgan. Badiiy va ilmiy asarlarni ko'chirishda asosan nasx va nasta'liq xatlaridan foydalanilgan.



Husayn Boyqaro saroyida xattotlar asosan Hirot va Mashhad xattotlik maktabining a‘zolari edi. Bular Abdujamil kotib, sulton Ali Mashhadiy, Sulton Ali Qoiniy, Mavlono Nomi, Sulton Ali Uvayhiy, Sulton Muhammad Nur, Mahmud Sabzazoriy, Muhammad Xandon va Mavlono Majnun kabi o‘nlarcha xattotlar bo‘lib Navoiy bilan o‘z faoliyatlarini olib borgan. Masalan, Asxar Tabriziy shogirdlaridan biri bo‘lgan Sulton Ali Qoiniy “Majoliz un – nafa’is” ni go‘zal va nasif nasta’ xatida ko‘chirgan. Navoiy u haqida “darvesh yigit va hazrati Mahdumi Nuran (Jome’) mulozamatlari sharafi anga dast beribdur... ammo, bir kuni anga buyurilib erdi muzd (haq) tain qilurda mubolag‘ani (ko‘p aytdi) ul erg‘a, yet ko‘rdikim, har bir baytim bir tangaga arzir.... Ul so‘zlarkim ul bitir ortiqroqqa xat arzur”, desa Mavlono Majnun riqo‘da, Mavlono Nomiyni insho bila noma xatini biturg‘a mashhur deydi. Bular bilan birga Qomusda hirotlik yosh xattotlardan biri Sulton Muhammad Nur to‘g‘risida ma‘lumot beriladi. U kishi saroyda kotiblik qilgan.

Unga Xafiiy (ingichka) xat bilan yozishda hech kim teng kela olmagan. Shuning uchun unga “Asxariy soniy” deb laqab qo‘yishgan. Xondamir “Hulosat ul – ahbor” asarida Navoiyning u haqida “...nasta’liq yozishda hech kim unga teng kelolmaydi” degan so‘zini eshitganini aytdi. Muhammad Nurning Navoiy terma devonlaridan birini nasta’liq xatida ko‘chirgan, charm muqovalari sahifalarining atrofiga oltin suvi yugurtirilgan va shu qo‘lyozma bizgacha yetib kelgan.

Navoiyga zamondosh xattotlardan baxs yuritilgandan ulug‘ shoirga hamfikr sirdosh. Navoiyning asarlari hali siyohi qurumasdan ko‘chira boshlangan. Abdujamil kotib xususida alohida to‘xtalish lozim bo‘lgan. U o‘zining (tuxfat us-salotin) asari muqaddimasida ta’kidlaganidek Navoiy asarlarining deyarli hammasini ketma ket ko‘chirgan. Lekin “Hamsa” 1487-yilda ko‘chirilgan. “Navodir un-nihoya” qo‘lyozmasi saqlanib qolgan. Abdujamil kotibning Navoiy shox baytlarini to‘plab, unga “Tuhfat us – salotin “ deb nom berib maxsus muqaddima yozgan va u albatta diqqat-e’tiborga loyiqdir.

Xuroson kotiblari orasida eng mashhuri, Bobur ta’biri bilan aytganda hushnavislikda “Qiblat ul-kuttob”, “Zubdan ul-kuttob” va “Kotib us-sulton” degan laqablar sohibi Sulton Ali Mashhadiy edi. U o‘z shahrida ta’lim olib voyaga yetgan. Fors lug‘atshunos olimi Dextudo uni temuriylar saroyini eng mashhur kotibi Zayniddin Azhar Tabriziyning shogirdi degan edi.

O‘rta Osiyoda arab yozuvlari tarqalgunga qadar turli xil yozuv usullari bo‘lgan (mas, sug‘diy, urxunenisey, qad. turkiy xoqon yozuvlar va boshqa). Qadimiy yozuvlardan bo‘lgan kufiy yozuvi ko‘pgina me’moriy va boshqa yodgorliklarining bezagida, saqlanib qolgan. Shu jumladan, O‘zbekiston musulmonlari diniy idorasida saqlanayotgan Usmon Qur’oni ham ana shu kufiy yozuvida ko‘chirilgan. Qur’on ko‘chirishda nasx, buyruq va farmonlar yozishda tavqe, maktublar bitishda riqo ishlatilgan. Bulardan tashqari tumor, g‘ubor, shajariy, tug‘ro va boshqa yozuv usullari ham bo‘lgan. 15-asrdan kitob ko‘chirish fors, eski o‘zbek tillarida nasta’liq xati rayem bo‘lgan. Markaziy Osiyoda Temuriylar, Shayboniylar va so‘nggi sulolalar ashtarxoniylar, mang‘itlar davrida

yuksak darajada taraqqiy etgan. Amir Temur davrida Mavlono Shamsuddin Munshiy, sangtarosh va xattot Oltun juda mashhur bo'lgan. Alisher Navoiyning shaxsiy kutubxonasida 11 ta yirik san'atkorlar Sultonali Mashhadiy, Abduljamil Kotib, Darvesh Muhammad Toqiy va boshqalar Xurosonda samarali ijod qilgan. "Xattotlar sultoni" Sultonali Mashhadiy, Mir Ali Tabriziy va boshqa nasta'liq xatini san'at darajasiga ko'targan. Temuriy shahzodalar Ibrohim bin Shohruh, Boysung'ur Mirzo, Badiuzzamon Mirzo ham Xattotlikka homiylik qilish bilan birga o'zlari bu san'at turi bilan shug'ullangan; Zahiriddin Muhammad Bobur esa yangi xat va alifbo "Xammu Boburiy" ixtirochisi bo'lgan. Kitobat san'ati bilan bir qatorda binolarning kitobalari, qabrtoshlardagi bitiklar va buyumlarda xattotlik keng qo'llangan. Shayboniylardan Muhammad Shayboniyxon va Ubaydullaxon xattotlik bilan shaxsan shug'ullangan va nasx xatida yuksak mahorat bilan yozgan. 16-asr Movarounnaxr xattotlik maktabini yuzaga kelishida Mir Ali Hiraviynsh hayoti va ijodi muhim o'rin tutadi. Bosmaxona paydo bo'lguniga qadar kotib, xattotlar mehnati kitob tayyorlashda muhim o'rin tutgan. Bu borada Boysung'ur Mirzo, Alisher Navoiy, Muhammad Rahimxon II (Feruz) faoliyatlari diqqatga sazovor bo'lgan. 20-asrda yirik kutubxonalarda xattotlar qo'lyozma kitoblar nusxasini ko'paytirish bilan shug'ullanishadilar. Mas, Navoiy kutubxonasi (O'zbekiston milliy kutubxonasi)da bir guruh xattotlar ishlagan. 1943-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti tashkil topgach, malakali xattotlar (Ibodulla Odilov, Abduqodir Murodov, Abdulla Nosirov, Usmon Karimov va boshqalar) shu yerga to'plandi va ular ko'hna qo'lyozmalarni tiklash, ko'chirish, tavsif varaqalari tuzish bilan shug'ullana boshladilar. 20-asr 80-yillariga kelib kitobat san'ati bir guruh kishilar tomonidan qayta tiklanadi. Bunda Habibulla Solih, Abdulla Mirsoatov, To'xtamurod Zufarov, Alisher Shomammedov va boshqalarning xizmatlari katta. Shu jumladan, Habibulla Solih Mushafi Usmon Qur'onining asl nusxasidan pergamentga 3 marta nusxa ko'chirib tayyorlagan (bir nusxasi Malayziyaning KualaLumpur shahrida, pergamentga ko'chirib tayyorlagan yana bir nusxasi Toshkent islom universitetida), Katta Langar Qur'onidan (Sankt-Peterburg va O'zbekistondagi nusxalari asosida) teriga ko'chirib nusxa tayyorlamoqda. Habibulla Solih 1998-yilda Istanbulda bo'lib o'tgan Xalqaro xattotlar bellashuvida "Devoniy" xat uslubi bo'yicha kuchli o'nlikdan o'rin oldi; 1999-yilda xattotlikda yangi tarz (naqshin bezak yozuvining alifbosini kashf kilib bu sohada yangilik) yaratgani uchun Lohurdagi Xalqaro xattotlar bellashuvida "Parvin raqam" ("Sharq yulduzi") unvoniga sazovor bo'ldi. Abdulaziz Mansurov, Islom Mamatov, Salimjon Badalboyev, G'afurjon Haqberdiyev va boshqa bugungi kundagi eng mashhur xattotlardir. Xattotlik hozirgi kunda Toshkent sharqshunoslik instituti, Toshkent islom universiteti, Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida o'rgatiladi.

Abduqodir Murodov "O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan" asarini yozdi. U 1907–1917-yillari Toshkentdagi Abulqosimxon madrasasida Qur'on va hadis ilmini, arab va fors tillarini o'rgandi. Keyin suriyalik olim va adib Muhammad ibn



Sa'id al-Asaliydan (bu kishini Shomiy domla deb atashgan) arab tili va adabiyotidan ta'lim oldi. Xattotlik kasbi bilan ham shug'ullangan. O'zbek, arab, fors tillarini mukammal bilgan. Oktyabr to'ntarishidan keyin o'qituvchilar tayyorlov kursini tugatib maktabda o'qituvchilik qilgan.

Bu olim eski qo'lyozma asarlarning nuqsonli joylarini tuzatib, ularni olimlarning o'rganishlari uchun mukammal holga keltiradi, qo'lyozma asarlarning nomlari bo'yicha va avtorlari bo'yicha kartochkalar tuzadi. Ularda asarlarning yozilgan yillari, ko'chiruvchi xattotlari, ko'chirilgan yillari ko'rsatiladi. Bu kartochkalar fanning qaysi bir tarmog'iga oid bo'lmasin, qo'lyozma asarlarni o'rganmoqchi bo'lgan har bir ilmiy xodim uchun juda katta yordam beradi.

Navoiy qo'lyozmalari bibliografiyasini tuzgan (1946–47) va shoirning “Badoye ul-bidoya”, “Navodir un-nihoya” devonlari qo'lyozmalarini topib (1959), ular shoir tomonidan tuzilganligini isbotlagan. “Xazoyin ul-maoniy” tanqidiy matnini tuzgan va nashr ettirgan (1958–60). “Devoni Foni” qo'lyozmalarini (Fransiyadan) topib, fotonusxa asosida nashr ettirgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyining asosiy vazifalaridan biri xorijiy mamlakatlar kutubxona va qo'lyozmalar fondlaridagi mumtoz adabiyotimizga doir kitoblarni o'rganish, ulardan ko'chirma nusxalar olib, yurtimizga tadbiq qilish asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. Toshkent, 1971.
2. Munirov Q, Nosirov A. Navoiy qo'lyozma asarlari katologi. Toshkent, 1970.
3. Hakimov M. Alisher Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlar. Toshkent, 1991.
4. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. Toshkent, 1977.
5. Mahdiy Bayoniy. Ahvoi va osori xushnavison. Tehron, 1358 h.y.